BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AVAZOVA **NILUFAR OQILJON QIZI**

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA TO‘RTLIK JANRI POETIKASI (BUXORO ADABIY MUHITI MISOLIDA)

10.00.14 – XX asr adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 82-1/-19(575.146)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Avazova Nilufar Oqiljon qizi
Zamonaviy she’riyatda to‘rtlik janri poetikasi (Buxoro adabiy muhiti misolida) 3

Авазова Нилуфар Окилжон кизи
Поэтика жанра четверостишия в современной поэзии (на примере Бухарской литературной среды) 21

Avazova Nilufar Oqiljon qizi
The poetics of the quatrain in modern poetry (a case study of the Bukhara literary milieu) 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AVAZOVA NILUFAR OQILJON QIZI

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA TO‘RTLIK JANRI POETIKASI (BUXORO ADABIY MUHITI MISOLIDA)

10.00.14 – XX asr adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya kor . . . . B2024.2.PhD/Fil4556 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Rajabov Dilshod Zaripovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Payzullayeva Ra’no Maxmudovna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-dekabr soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel./faks: (+99865) 221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1182 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 23-noyabrda tarqatildi.

(2026-yil 23-noyabrdagi 26-33 raqamli reestr bayonnomasi)

O.M. Favzullovev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy raisi, filologiya fanlari dokto professor

M.R. Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q. Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida lirik tur janrlarini izchil o‘rganish rivojlanishi bilan to‘rtlik badiiy strukturasi, tarixiy-poetik taraqqiyoti, mavzu va muammolar olami, lirik qahramonning madaniy-ma’rifiy darajasini aniqlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi she’rshunoslikda to‘rtlik matniy qurilmasining o‘ziga xosligi, boshqa janrlar bilan aloqa-munosabatlari, shoir tafakkur va dunyoqarashining badiiy ifodasi hamda ijodkorning obraz yaratishdagi poetik izlanishlarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, janrning belgi tizimi sifatidagi denotativ va konnotativ xususiyatlari, belgi qurilmasidagi uzvlar (shakl va konsept)ning o‘zaro aloqa-bog‘lanishlari kabilarni tadqiq etish o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida to‘rtlikni mustaqil adabiy janr maqomida va yuqorida qayd etilgan muammolar doirasida tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar hamda nazariy-metodologik yondashuvlar ko‘lami izchil kengaymoqda. Mazkur janrning badiiy-poetik va strukturaviy qonuniyatlarini tizimli ochib berishda an’anaviy (analitik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, statistik) metodlar bilan bir qatorda, tadqiqotga struktur-semiotik, germenevtik hamda psixoanalitik zamonaviy usullarni tatbiq etish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Yangi ilmiy yondashuvlarning amaliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb vazifa sanalib, bunday kompleks tahlil kichik lirik janrning murakkab adabiy-semantik strukturasini chuqur, aniq va xolis o‘rganish imkonini beradi.

Mamlakatimizda milliy Mustaqillik davrida kichik lirik janrlar (ikkilik, uchlik, to‘rtlik, shashqator (oltilik))ning tadqiqiga e’tibor oshib borayotgani kuzatilmoqda. Bu hodisaning asosiy sababi shundaki, adabiy-badiiy tajribada hajman mo‘jaz janrlarning ahamiyati va salmog‘i tobora ortib borayotganini ko‘rish mumkin. Tezkor va shiddatli zamon nafaqat lirik, shuningdek, epik, dramatik tur namunalaridan ham muxtasarlik, lo‘ndalikni talab etmoqda. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega”[1].

Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son “Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasini tasdiqlash hamda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san’at.

tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida bir qancha olimlar tomonidan lirik janrlarning poetikasi masalalari tadqiq qilingan, adabiy tur va janrlarning xilma-xilligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[2]. Dissertatsiya uchun Aristotel, Mahmud Koshg‘ariy[3], A.N. Veselovskiy, V.M. Jirmunskiy, Rolan Bart, Ibrohim Haqqul[4] ishlari, uch jildlik “Adabiy turlar va janrlar” tadqiqotining lirikaga bag‘ishlangan ikkinchi kitobi ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida kichik lirik janrlar, jumladan, zamonaviy to‘rtlik janrining yuzaga kelishida muhim manba bo‘lgan ruboiy R. Orzibekov, N. Afoqova, K. Jerimbetov, Sh. Nuriddinova, O. Karimov tadqiqotlarida nisbatan kengroq o‘rganilgan[5]. Zamonaviy kichik lirik janrlar esa asosan milliy Mustaqillik davrida Sh. Aldasheva, M. Abdullayeva, D. Tosheva, G. Zoyirova, F. Buriyeva, N. Keldiyorova kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan[6].

---

[2] Аристотель. Поэтика. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1980. – 152 б.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 299 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: “Искусство”, 1976. – 614 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: “Высшая школа”, 1989. – 224 с.; Томашевский Н. Традиция и новизна. – М.: “Художественная литература”, 1981; Йўлчиев Қ. Поэтик олам сирлари. – Тошкент: Академнашр, 2012.

[3] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1963. – Б. 93.

[4] Иброҳим Ҳаққул. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: Ўзбекистон “Фан” нашриёти, 1981. – Б. 30; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: “Высшая школа”, 1989; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: 1977. – 408 с.; Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. – С. 246–253.

[5] Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент, 1976; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1992; Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва китъа. – Тошкент: Фан, 2005; Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. – Тошкент, 2006; Жеримбетов К. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық кәсийетлери ҳәм раўажланыў тарийхы. – Нөкис: Билим, 2004; Нуриддинова Ш.И. Трансформация персидско-таджикского рубаи в арабской поэзии XI–XIII вв.: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 2009; Каримов О. Мумтоз шеърият жанрлари. – “Наманган” нашриёти, 2015.

[6] Алдашева Ш. 70-90 йиллар ўзбек лирикасида тўртлик, саккизлик ва шеърий туркум табиати. Филол.фан. бўйича фалс. докт.дисс... – Тошкент, 2019. – 136 б.; Абдуллаева М. Адабий-тарихий асарларда кичик жанрлар поэтикаси. Филол.фан.докт.дисс... (DSc). – Тошкент, 2021; Тошева Д.С. Мустақиллик даври ўзбек шеъриятида бадиий шакл ва жанр хусусиятлари Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ...дисс. Бухоро, 2021. Zoyirova G. Samandar Vohidov she’rlari poetikasi. Filol.fan. bo‘yicha fals. dokt. diss. – Buxoro, 2022. – 167 b.; Келдиёрова Н. Замонавий ўзбек шеъриятида поэтик образ ва унинг бадиий талқини. Филол. фан. бўй. фалс.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” (2023–2026-yy.) mavzusidagi tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy she’riyatda to‘rtlik janrining o‘rni va poetikasini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro adabiy muhitiga oid shoirlarning ijodidagi to‘rtlik namunalarining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish va muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish;

janrning genetik-tarixiy asoslarini tadqiq etish, uning namunalaridagi mavzular olami, lirik qahramon ifodasini aniqlash;

ushbu kichik lirik janr belgilar tizimi ekanligini tadqiq jarayonida oydinlashtirish; to‘rtlik namunalarining badiiy strukturasidagi binar zidlik va ramziy munosabatlarni o‘rganish orqali belgi uzvlari (shakl va konsept), belgilararo bog‘lanishlarning badiiy-funksional ahamiyatini ko‘rsatish;

to‘rtliklarning mavzular olami, badiiy g‘oyalar tizimi, adabiy-poetik xususiyatlarini tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro adabiy muhitida sermahsul ijod qilib kelgan Sadriddin Salim Buxoriy, Samandar Vohidov, Toshpo‘lat Hamid, G‘ulom Shomurod, Sulaymon Shodiyev, Mustaqim Rofiylarning to‘rtliklari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini to‘rtliklarning adabiy-poetik tabiati, mavzular olami, badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari, belgi sifatidagi alomatlari, badiiy san’at, ritm kabilarning janr qurilmasidagi o‘rni singarilar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, tarixiy-qiyosiy, struktur-semiotik, lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy Buxoro adabiy harakatchiligining vakillari (Samandar Vohidov, Sadriddin Salim Buxoriy, G‘ulom Shomurod, Sulaymon Shodiyev, Mustaqim Rofiy)ning to‘rtlik janridagi ijod namunalari yangicha adabiy-estetik tafakkur asosida monografik tarzda o‘rganilgan va zaruriy ilmiy-nazariy xulosalar bilan isbotlangan;

mazkur janrning tarixiy-genetik asoslari diaxron usul yordamida tadqiq etilib, milliy poeziyamizdagi to‘rtlik uchun qadimgi turkiy lirika namunalari (xalq qo‘shiqlari), mumtoz she’riyatdagi ruboiy, G‘arb she’riyatidagi to‘rt misrali she’rlar badiiy-poetik zamin bo‘lganligi asoslangan;

to‘rtlik janriga oid lirik yaratmalar struktur-semiotik metodlar yordamida sinxron tarzda tahlil etilib, badiiy matnning belgilar tizimi sifatidagi alomatlari, belgi unsurlari va belgilararo bog‘lanishlar aniq va izchil tekshirishlar davomida dalillangan;

kichik lirik janrda badiiy san’atlar, ritm va vaznning badiiy-funksional o‘rni, ijodkorlarning badiiy obraz yaratish mahorati analitik, qiyosiy-tarixiy, struktur-

---

док. (PhD) ...дисс. – Тошкент: 2022; Buriyeva F.N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi Filol.fan. bo‘yicha fals. dokt. diss. – Samarqand, 2023. – 141 b. – 276 б.

semiotik usullar vositasida ishning ilmiy-nazariy konsepsiyasi talablariga asosan o‘rganilgan hamda hozirgi milliy she’riyatda to‘rtlikning o‘rni va badiiy-estetik ahamiyati aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘rtlik mustaqil lirik janr sifatida o‘rganilib, uning genezisi, badiiy-poetik tadriji, lirik janrlar tizimidagi o‘rni, badiiy xususiyatlari yoritildi;

uning belgilar tizimi ekanligi tahlillar davomida ko‘rsatilib, belgi tarkibidagi va belgilararo munosabatlar matn yaxlitligini yuzaga keltirishi isbotlandi;

janr namunalarida aks etgan mavzu lirik yaratmaning yetakchi konsepsiyasi, shuningdek, badiiyat darajasi bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib berildi;

kichik lirik janr (to‘rtlik)da badiiy san’atlar, ritm va vaznning badiiy-funksional o‘rni va badiiylikni yuzaga keltirishdagi vazifalari tahlillar jarayonida ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan tadqiq usullari va nufuzli ilmiy-nazariy manbalarga asoslanilganligi, o‘rganilayotgan muammolarning izchil tahlillarga suyanib yoritilgani, analitik, tarixiy-qiyosiy, struktur-semiotik, lingvistik tahlillar vositasida asoslanganligi, mavzu bo‘yicha aniqlangan fikr-qarashlar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda e’lon qilingan ishlarda o‘z ifodasini topganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida nisbatan kam o‘rganilgan to‘rtlikning lirik janr sifatidagi genezisi, tarixiy-poetik tadriji, undagi lirik qahramonning ruhiy-ma’naviy olami, semiotik strukturasi, belgilar tizimi sifatidagi o‘ziga xosligi, shakl va konsept hamda konseptlararo aloqa bog‘lanishlarning o‘ziga xos jihatlarini aniq tahlillar jarayonida yoritilgani va muhim xulosalar chiqarilganida ko‘rinadi.

Dissertatsiyadagi fikr-mulohazalar, ilmiy xulosalardan zamonaviy Buxoro adabiy muhitida ijod etgan shoirlarning badiiy yaratmalarini o‘rganishga qaratilgan magistrlik, PhD tadqiqotlari yaratishda, maqola, risola, monografiyalar yozishda foydalanish, “O‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon va yangi o‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Strukturalizm va semiotika”, “Badiiy matn tahlili” fanlaridan ma’ruza matnlari tayyorlash, amaliy mashg‘ulotlar o‘tish, mazkur sohalar bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-metodik ko‘rsatmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy she’riyatda to‘rtlik janri poetikasini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

dissertatsiyada to‘rtlik janriga oid lirik yaratmalar struktur-semiotik metodlar yordamida sinxron tarzda tahlil etilib, badiiy matnning belgilar tizimi sifatidagi alomatlari, belgi unsurlari va belgilararo bog‘lanishlar aniq va izchil tekshirishlar asosida ilmiy yoritilgan bo‘lib, tadqiqotning ilmiy xulosalaridan 2022–2025-yillarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi nomoddiy madaniy meros bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazi (IRCI, Yaponiya) tomonidan moliyalashtirilgan APC2C/10- sonli “Sustainable Collection of Research Data for the Protection of Intangible Cultural Heritage: Focus on Central Asia and Small Island Developing States (2022-2025

Fiscal Year)” nomli fundamental loyihada foydalanildi (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazining 15.07.2026-yildagi MA 01/01-16-son ma’lumotnomasi). Natijada, kichik lirik janrda badiiy san’atlar, ritm va vaznning badiiy-funksional o‘rni, ijodkorlarning badiiy obraz yaratish mahorati analitik, qiyosiy-tarixiy, struktur-semiotik usullar vositasida ishning ilmiy-nazariy konsepsiyasi talablariga asosan o‘rganildi hamda hozirgi milliy she’riyatda to‘rtlikning o‘rni va badiiy-estetik ahamiyatiga oid ilmiy tasavvurlar aniqlashtirildi va takomillashtirildi;

zamonaviy Buxoro adabiy harakatchiligining vakillari (Samandar Vohidov, Sadriddin Salim Buxoriy, G‘ulom Shomurod, Sulaymon Shodiyev, Mustaqim Rofiy)ning to‘rtlik janridagi ijod namunalari yangicha adabiy-estetik tafakkur asosida monografik tarzda o‘rganilgan va zaruriy ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan; mazkur janrning tarixiy-genetik asoslari diaxron usul yordamida tadqiq etilgan va milliy poeziyamizdagi to‘rtlik uchun qadimgi turkiy lirika namunalari (xalq qo‘shiqlari), mumtoz she’riyatdagi ruboiy, G‘arb she’riyatidagi to‘rt misrali she’rlar badiiy-poetik zamin bo‘lganligiga oid ilmiy xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2024-yilda bajarilgan AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 20.06.2026-yildagi 01-4761-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan elektron platforma Buxoro adabiy muhitining zabardast vakili S.S. Buxoriy hayoti va ijodiga doir yangi badiiy-tahliliy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

kichik lirik janrda badiiy san’atlar, ritm va vaznning badiiy-funksional o‘rni, ijodkorlarning badiiy obraz yaratish mahorati analitik, qiyosiy-tarixiy, struktur-semiotik usullar vositasida o‘rganilganligi hamda hozirgi milliy she’riyatda to‘rtlikning o‘rni va badiiy-estetik ahamiyati haqidagi xulosalardan Buxoro viloyati teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “So‘z va adabiyot”, “Xalq qadrlagan durdonalar” ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 22.06.2026-yildagi 02/06/85-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan;

to‘rtliklardagi badiiy san’at, ritm, vaznning badiiy-poetik vazifa va ahamiyati tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan lirik asarlar tahlili jarayonida ko‘rsatilganligi, to‘rtlik janriga oid lirik yaratmalar struktur-semiotik metodlar yordamida sinxron tarzda tahlil etilib, badiiy matnning belgilar tizimi sifatidagi alomatlari, belgi unsurlari va belgilararo bog‘lanishlar aniq va izchil tekshirishlar davomida yoritilganligi kabi ma’lumotlardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi huzuridagi “Yosh ijodkorlar” adabiy to‘garagi mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining 19.06.2026-yildagi 54-son ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy-nazariy xulosalar to‘garak va tadbirlarda shu yo‘nalishdagi materiallardan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“To‘rtlikning genetik-tarixiy asoslari, badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari”** deb nomlangan hamda ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli (“Janrning genetik-tarixiy asoslari”)da turkiy folklorda shakllangan to‘rtliklar va dunyo she’riyatidagi to‘rtlik shaklidagi she’r namunalari aynan bu janrning tarixiy ildizlari ekanligi bayon etilgan. Tahlil va tekshirishlar XX asr milliy she’riyatida yuzaga kelgan to‘rtlikning quyidagi tarixiy-genetik asoslari mavjudligini ko‘rsatadi:

1. Qadim zamonlarda turkiy folklorda shakllangan to‘rtliklar.
2. Sharq yozma so‘z san’atidagi ruboiy.
3. Jahon she’riyatidagi to‘rtlik shaklidagi she’riy ijod namunalari.

1. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ruboiy genezisi xususida fikr yuritar ekan, bu lirik janr uchun birinchi navbatda folklordagi to‘rtliklar asos bo‘lganini ko‘rsatgan. Bu haqda u shunday yozadi: “Turkiy xalqlar folklorida ruboiy formasining eng qadimiy namunalari bizgacha Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari orqali yetib kelgan”.[7] Adabiyotshunos turkiy to‘rtliklarning ruboiy janrining yuzaga kelishi, badiiy-poetik jihatdan shakllanishi hamda taraqqiyotidagi o‘rnini hisobga olib, ularni “xalq ruboiylari” deb atagan.[8] Ibrohim Haqqul mazkur tadqiqotida “Devonu lug‘otit turk”dagi aksariyat to‘rtlik va lirik parchalar aaba va aaab tarzida qofiyalanganini aniqlagan. Biz bu o‘rinda, “Devon”da keltirilgan to‘rtliklar bilan tadqiqotimiz obyektidagi ayrim lirik ijod namunalarini tarixiy-qiyosiy tarzda muqoyasa etib, muayyan qarashlarni asoslashga harakat qilamiz.

---

[7] Иброҳим Ҳаққул. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: Ўзбекистон “Фан” нашриёти, 1981. – Б. 30.

[8] Иброҳим Ҳаққул. Шу китоб. – Б. 32.

Bo‘lmish nengir sevarsan,
Aqrun angar sevingil.
Barmish nengir saqinma,
Azraq angar o‘kungil.[9]

Ishimizning manbasi bo‘lgan to‘rtliklarni tekshirish shuni ko‘rsatdiki, ularda qadimiy turkiy xalq og‘zaki ijodidagi aaab qofiyalanish tizimi qo‘llanilmagan, asosan, aaba, ba’zan esa aaaa tarzidagi tizim istifoda etilgan:

Derlar: yomon ona yo‘qdir dunyoda,
Meni qoniqtirmas bunday ifoda.
Agar hamma ona farishta bo‘lsa,
Kimdan tug‘iladi shum shaytonzoda.[10]

Xalq og‘zaki ijodining lirik janrlari va zamonaviy to‘rtlik namunalarini o‘zaro qiyoslash yangi adabiy-badiiy jarayon taraqqiyotida yuzaga kelgan to‘rtlik folklordagi lirik janrlar bilan vazn (barmoq), qofiya tizimi (aaba va aaaa, ba’zan abab), mavzu doirasi kabi jihatlardan tarixiy-genetik aloqadorligini ko‘rsatdi.

2. To‘rtlik ko‘p xususiyatlariga ko‘ra ruboiy janriga yaqin va mushtarak. Bunday o‘zaro aloqadorlik hamda o‘xshashliklar quyidagilarda ko‘rinadi:

a) ikki istiloh ham bir ma’noni anglatadi: ruboiy arabcha atama bo‘lib, uning o‘zbekcha tarjimasi to‘rtlik deganidir;[11]

b) ikki lirik janr ham to‘rt misradan tashkil topgan;

d) to‘rtlik mavzu nuqtayi nazaridan ham ruboiyga o‘xshash. Ikki janrda, asosan, axloqiy-tarbiyaviy, islomiy-tasavvufiy, falsafiy qarashlar badiiy ifoda topadi;

e) ruboiy qofiyalanishiga ko‘ra tarona (taronai ruboiy: aaaa), xosiy (ruboiyi xossa: aaba) degan ikki turga bo‘linadi. Xuddi shunday qofiyalanish to‘rtlikka ham xos:

Imkonlikka har dam topilur imkon, *a*
Imkonsizga hech vaqt topilmas darmon. *a*
Odamzod goh imkonli, goh beimkon, *a*
Shundan u yo armonli u, yo bearmon.[12] *a*

Yuqorida ko‘rsatilgan yaqinlik, mosliklarga qaramasdan mumtoz va zamonaviy lirikadagi mazkur ikki she’r turi (ruboiy va to‘rtlik) adabiyotshunoslikda bir-biridan farq etuvchi janrlar sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqotchilar ular orasidagi eng asosiy tafovut sababi sifatida vaznni ko‘rsatganlar.

3. Jahon poeziyasi, shu jumladan, G‘arb adabiyotlarida to‘rtlik o‘ziga xos o‘rin va mavqega ega. Shunga qaramay, o‘zbek she’riyatidagi to‘rtlik va jahon poeziyasi zaxirasidagi to‘rt misrali lirik she’rlarni qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy tarzda solishtirganda, ayrim uyg‘unlik va yaqinliklar bilan bir qatorda

---

[9] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1963. – Б. 93.
[10] Самандар Воҳидов. Дунё ками битмагай. – Бухоро нашриёти, 2014. – Б. 280.
[11] Д. Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 260.
[12] Ғулом Шомурод. Заррин япроқлар. – “Бухоро” нашриёти, 2006. – Б. 65.

anchagina tafovutlar ham ma’lum bo‘ladi. G‘arb lirikasida to‘rtlik mustaqil istiloh sifatida qo‘llanilmaydi: uning o‘rniga odatda katren atamasi ishlatiladi. “Katren jahon adabiyotidagi fundamental shakl hisoblanib, to‘rt misrali bandni ifodalaydi”[13]. “Rus she’riyatining quyoshi” sifatida e’tirof etilgan A.S. Pushkin she’riy ijodida ham to‘rtlik janridagi she’rlar mavjud. Bunday kichik hajmli lirik yaratmalar, asosan, epigramma yoki shoirning biror-bir do‘stiga murojaati tarzida yozilgan.

Dissertatsiya dastlabki bobining ikkinchi fasli **“To‘rtlikda mavzular olami, lirik qahramon ifodasi”** deb nomlanadi. Mumtoz Sharq lirikasidagi janrlar nafaqat qofiya tizimi, band va baytlar miqdori, aruzning ma’lum bir vazniy tarmoqlari, balki mavzulariga ko‘ra ham bir-biridan farqlangan. Masalan, g‘azalda, asosan, ishq-muhabbat, ruboiyda falsafiy dunyoqarash, qit’ada esa axloqiy-ma’rifiy qarashlar badiiy tajassum etilgan.

Hayot saboqlarining badiiy ifodasi. To‘rtlik birinchi navbatda ruboiyning adabiy vorisi bo‘lgani sababli uning badiiy olamida hayot mohiyati, olam sinoati va odam fe’l-tabiati xususidagi o‘y-qarashlar ko‘proq ifoda topadi. Aksar hollarda hayot tajribalari xususidagi badiiy asarlar, shu jumladan, to‘rtlik ham qalam egasining yoshi ulg‘ayib, umrning keksalik mavsumi arafasida yoki pallasida yaratiladi. Bu fikrning isbotini buxorolik shoir G‘ulom Shomurod qalamiga mansub bo‘lgan to‘rtliklarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Dunyoda eng qabih ulkan gunohkor –
Kishilar ichida yurgan riyokor.
Chunki u sirtida do‘st, g‘amxo‘r bo‘lib,
Dushmanlik qiladi zimdan badkirdor.[14]

Ushbu ixcham lirik yaratmada riyokorlikning muxtasar badiiy-hissiy ta’rifi berilgan. Chindan riyo eng yomon illatlardan biridir.

Pand-nasihat asosida yaratilgan to‘rtliklar. Tasnifning mazkur guruhiga kiruvchi kichik she’riy janr namunalarida adresant (bayonchi) o‘zi yoxud boshqalar nomidan so‘zlab, adresatga o‘git berishga harakat qiladi. Adresatga murojaat etilgan to‘rtliklarda so‘zlovchi nutqi adresantdan o‘zgalarga qaratiladi. Shoir Samandar Vohidovning bir to‘rtligida lirik qahramon birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralarda navbat bilan uchta obyektga murojaat etgan.

Qo‘ldan qo‘lga o‘tmagil, gulliging qolmas, ey gul,
Guldan gulga ko‘chmagil, qadring qolmagay, bulbul.
Bedardlar davrasida dasturxon qilma darding,
Darding darddosh topmasa, dilliging qolmas ey dil.[15]

Turmush muammolari haqidagi to‘rtliklar. Shunday mavzuga oid ijod namunasini shoir G‘ulom Shomurod adabiy merosi sahifalarida ko‘rish mumkin:

Ba’zilar shon deya yozib dasturxon,
Nufuz-u boyligin ko‘z-ko‘zlar chunon.

---

[13] Катрен // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н. Николюкина; ИНИОН РАН. – М.: Интелвак, 2001. – Стб. 347. – 1596 с. – ISBN 5-93264-026-X.
[14] Ғулом Шомурод. Заррин япроқлар. – “Бухоро” нашриёти, 2006. – Б. 58.
[15] Самандар Воҳидов. Дунё ками битмагай. – Бухоро нашриёти, 2014. – Б. 263.


O‘tganlar muhtojmas axir bularga,
Eng ulug‘ ziyofat – o‘qilgan Qur’on.[16]

Obro‘-e’tibor qozonish uchun dabdabali, serisrof to‘y va ma’rakalar qilishning zarar va yomonliklari jadid adabiyotining ustuvor mavzularidan biri sanalgan. Ma’rifatparvarlar xalqni bunday illatdan xalos bo‘lishga chaqirganlar.

Muhabbat mavzusi yoritilgan to‘rtliklar. Ibrohim Haqqul sevgi xususida yozilgan she’rlar ko‘p jihatlari (misralar soni, qofiyalanish, aruz vaznida yozilishi) bilan ruboiyga o‘xshash bo‘lsa-da, ular ruboiy janri sifatida e’tirof etilmasligi to‘g‘risida yozgan edi, chunki bunday lirik asarlar hazaj bahrining tegishli tarmoqlari (axrab, axram)da bitilmagan. Shu boisdan ularni to‘rtlik deb atash haqiqatga muvofiqdir.[17] Zamonaviy to‘rtliknavislikda boshqa mavzular qatorida sevgi tuyg‘ulari ham ma’lum darajada o‘z badiiy ifodasini topmoqda.

Men nechun sevaman seni, dilbarim,
Erkalab deymanki paripaykarim.
Chunki sen o‘zingsan bashar timsoli,
Achchig‘im, turshagim, shahdu shakarim.[18]

Fikrimizcha, she’r matnidagi birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralar o‘zaro mantiqiy izchillikka ega bo‘lib, uchinchi misra mana shu izchillikka yetarli darajada bog‘lanmagan. Qizig‘i shundaki, mazkur to‘rtlik bir-biriga qarshi turgan juftliklardan tashkil topgan:



1) achchig‘im; 2) turshagim; 3) shahdim; 4) shakarim.

Ikkinchi raqamdagi turshak matnda o‘rik qoqisi ma’nosida qo‘llanmagan. Buxoro shevasida tursh (nordon) degan ma’noni anglatadi. Uchinchi raqamdagi shahd esa asal demakdir. Shoir yuqorida ajratib ko‘rsatilgan to‘rtta belgini bir misraga jamlash orqali ayolning murakkab psixologik strukturasida tez-tez almashib turuvchi to‘rtta xususiyatni ko‘rsatgan:

Achchiq – tez jahli chiqishi. Tursh (ak) – yoridan xafa bo‘lganda tund qiyofa kasb etishi. Shahd – noz va g‘amzalari. Shakar – shirinso‘zligi.

Dissertatsiyaning II bobi “**To‘rtlik janrining semiotik tadqiqi”** deb nomlanib, dastlabki fasl “To‘rtlik belgilar tizimi sifatida” deb ataladi. Badiiy matn belgilar tizimi sifatida vujudga keladi va abadiyatga daxldor adabiy-poetik hodisa tarzida baholanadi. Lirik turning kichik janrlari sirasiga kiruvchi to‘rtlikka ham shu nuqtayi nazardan qaralganda, u ham turli-tuman belgilardan yuzaga kelgan badiiy butunlik ekanligi ayonlashadi. Chindan ham belgi mohiyati va badiiy-poetik vazifalari tizim, ya’ni badiiy matn sathidagina yuzaga chiqadi. Bu fikr isbotini

---

[16] Ғулом Шомурод. Заррин япроқлар. – “Бухоро” нашриёти, 2006. – Б. 80.

[17] Иброҳим Ҳаққул. Ўзбек адабиётида рубоий (жанрнинг поэтикаси ва тарихи). – Тошкент: Ўзбекистон “Фан” нашриёти, 1981. – Б. 30.

[18] Ғулом Шомурод. Заррин япроқлар. – “Бухоро” нашриёти, 2006. – Б. 52.

istalgan badiiy matn namunasi (she’r, doston, hikoya, qissa, roman, drama kabilarga oid ijodiy yaratmalar) tadqiqida ko‘rish mumkin.

Daraxt edik, yaproq bo‘lamiz,
Yer ostida ko‘proq bo‘lamiz.
Avvalimiz – oxirimiz bir,
Tuproq edik – tuproq bo‘lamiz.[19]

She’rning mazmunidan anglashiladiki, u falsafiy tafakkur natijasi tarzida badiiy yaratmaga evrilgan. Yuqoridagi ro‘yxatda birinchi belgining o‘ziyoq mana shunday falsafiylikni yaqqol ko‘rsatib turibdi:

daraxt edik (belgi)

daraxt shakl (bildiruvchi) — **insonni ifodalovchi konsept (bilinuvchi)**

Daraxt shakl (bildiruvchi) holida ko‘p yillik o‘simlikni anglatsa, konsept darajasida o‘z lug‘aviy ma’nosini jiddiy o‘zgartirib, inson va uning hayotini ifodalovchi konseptga aylangan. Ikkinchi belgi (yaproq bo‘lamiz): yaproq o‘z-o‘zicha yuzaga kela olmaydi. U faqat daraxt vujudidagina yuzaga kela oladi. Daraxt ham, yaproq ham foniy hodisa. Bu belgi ifodalagan konseptning birlamchi – denotativ ma’nosi. Bu cheklanganlikni faqat ularning tiriklik muhlati bilan bog‘lamaslik lozim. Bu o‘rinda gap kishi hayotining vafotidan keyin ham davom etishi haqida bormoqda. Odam o‘zinigina o‘ylab yashamay, savobli – ezgu ishlar qilsa – xalqqa manfaati tegadigan ko‘prik qursa, bog‘ yaratsa, olim yo shoir tarzida kitoblar yozib qoldirsa, hayoti mana shunday yodgorliklarda o‘limidan so‘ng ham yashab qoladi. **Yer ostida ko‘proq bo‘lish** – denotat sifatida barg va o‘simlikning chirib zamin bag‘riga singib ketishi va bu holning uzoq vaqt davom etishini anglatmoqda. Insonning yer ostida ko‘proq bo‘lishi qiyomatgacha qabrdagi hayoti bilan bog‘liq. **Avvalimiz – oxirimiz bir.** Inson ibtidoda tuproqdan yaratilgan. To‘rtlikdagi **avval** lug‘aviy birligi belgi sifatida tuproqni bildiradi. Tuproqdan yaralgan Odam bolalari yana avvalgi hollariga qaytadilar. **Tuproq edik – tuproq bo‘lamiz.** Bu uchinchi misradagi badiiy qarashning takroridir.

Matndagi belgilarning shakl va konseptlari orasidagi o‘zaro aloqadorlikni quyidagi chizma asosida ko‘rsatamiz:

shakl: daraxt → yaproq → yer osti → tuproq

konsept: inson → uning yerdagi hayoti → qabr → asliyatga qaytish

Yuqoridagi chizma to‘rtlik matnining nafaqat denotat, shuningdek, konnotat tarzida ifodalanganligini ko‘rsatmoqda.

Biz mazkur faslda zamonaviy Buxoro adabiy muhitining ikki taniqli namoyandasi – Sadriddin Salim Buxoriy va Samandar Vohidov lirik merosidagi ayrim to‘rtliklardagi tuproq konseptining xos xususiyatlarini struktur-semiotik usullar vositasida tadqiq etdik. Tekshirishlarimiz ikki shoir ijodida ham tuproq konsepti muhim badiiy-g‘oyaviy yukka ega ekanligini ko‘rsatdi. Uning vositasida

---

[19] Садриддин Салим Бухорий. Танланган асарлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2021. – Б. 186.

badiiy adabiyot, ma’naviyat, shaxs kamoloti uchun zarur bo‘lgan badiiy-falsafiy qarashlar obrazli-emotsional tarzda ifoda etilgan va bunday axloqiy-poetik qarashlar hozirgi zamon adresatining ruhiy-estetik kamolotini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya II bobining ikkinchi fasli **“Binar zidlik va ramziy munosabat”** deb nomlanadi. Badiiy matn strukturasidagi belgilarga bir qancha badiiy-poetik xususiyatlar, jumladan, binar zidlik va ramziy munosabat ham xos. Rolan Bart “Mifologiyalar”[20] tadqiqotida binar zidlik, “Belgi tasavvuri”[21] maqolasida esa ramziy, paradigmatik, sintagmatik munosabatlar haqida fikr yuritgan. Binarlik, ya’ni ikkilik birinchi navbatda til tizimida yuzaga kelishini Ferdinand de Sossyur o‘z nazariyasida ko‘rsatgan edi. Sossyur ta’limotiga ko‘ra, “binar zidlik vositasida til birliklari ma’no kasb etadi”.[22] Chindan-da, tundagi qorong‘ulikni anglash uchun kunduzdagi yorug‘lik xususida tasavvurga ega bo‘lish kerak. Tunni kunduzga qarama-qarshi qo‘yish orqali – binar ziddiyat yordamida inson tafakkurida mana shu ikki lisoniy birlik mohiyati oydinlashadi.

Hamma bol yutadi, men qon yutaman,
Yelkansiz kemaning boshin tutaman.
Chorlayman suyumli yorimni, biroq
U kelmas, men uni kutib o‘taman.[23]

Mazkur badiiy matn tarkibidagi yuqorida keltirilgan leksemalardagi besh matniy bo‘lak uchta binar zidlikni hosil etgan:

1) hamma bol yutadi ⟷ men qon yutaman;
2) chorlayman suyumli yorimni ⟷ u kelmas (kelmaydi);
3) u kelmas (kelmaydi) ⟷ men uni kutib o‘taman.

Matnning tarkibidagi biz tadqiq etayotgan binar juftlik uzvlari ifodalagan mazmunga asoslanadigan bo‘lsak, sevgi yo‘lida muttasil “bol yutish” chin baxtni anglatmaydi, aksincha, uning ko‘p vaqt davomida “qon yutayotganligi” haqiqiy insoniy tuyg‘ular sohibi ekanligidan, muhabbat borasida sinov bosqichlarini sabot bilan bosib o‘tayotganligidan dalolat beradi. Endi navbatdagi binar zidlik tahliliga kirishamiz:

chorlayman suyumli yorimni ⟷ u kelmas (kelmaydi)

Har bir sevgi sohibi o‘z mahbubasining yonida bo‘lishni, uning diydoridan bahramand bo‘lishni istashi tabiiy hol. Lekin sevimli mahbuba har doim ham kelavermaydi. Ushbu misralarda aynan shu hol tasvirlangan.

Biz ushbu fasl muqaddimasida badiiy matnga binar oppozitsiyadan tashqari ramziy munosabat ham xosligini aytgan edik. Rolan Bart “Belgi tasavvuri” maqolasida ramziy aloqadorlikni ichki munosabat deb atagan.[24] Semiotik olimning bunday xulosaga kelishining sababi shundaki, bunda uzvlararo bog‘lanish bir

---

[20] Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 48–131.
[21] Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 246–253.
[22] https://en.wikipedia.org/wiki/Binary_opposition#:~:text=According%20to%20Ferdinand%20de%20Saussure,cold%2C'%20and%20vice%20versa.
[23] Сулаймон Шодиев. Мен излаган гул. – Бухоро вилоят босмахонаси МЧЖ нашриёти, 2017. – Б. 246.
[24] Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 246.

belgining ichida – ikki unsurning bir-biri bilan tutashuvi tufayli yuzaga keladi. Bu qarashni tadqiqot manbasi sifatida olingan matn tahlili orqali isbotlaymiz:

Darg‘aning shogirdi darg‘a bo‘ladi,
Asl ot toychasi yo‘rg‘a bo‘ladi.
Ustoz qarg‘a bo‘lsa, bulbul kutma, oh,
Qarg‘aning shogirdi qarg‘a bo‘ladi.[25]

Mazkur matnda quyidagi lug‘aviy birliklar belgi sifatida qo‘llanilmoqda: qarg‘a – ikki uzv: bildiruvchi (shakl) va bilinuvchi (konsept)dan tashkil topgan belgi. Mazkur belgining bildiruvchisi qushning bir turini anglatadi. U konsept darajasida bo‘lganda esa lug‘aviy mohiyatini o‘zgartirib, yangicha – ramziy xususiyatga ega bo‘ladi: xudbin, fosiq, insoniylikdan yiroq kimsalarning timsoliga aylanadi. To‘rtlikdagi uchinchi misrada qarg‘adan tashqari bulbul birligi ham qatnashmoqda. Bulbul ijobiylikni, zog‘ esa salbiylikni o‘z badiiy qurilmasida tajassum etadi. XIV asrda yashagan Sayfi Saroyi masnaviysining dastlabki bayti fikrimizga dalildir:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,
Kimi bulbul durur so‘zda, kimi zog‘.[26]

Bu ijodkor talqiniga ko‘ra, so‘zlari tahsinga loyiq shoirlar bulbul, o‘zgalarning ash’orini meniki deb da’vo qilib, o‘zining ojizona mashqlarida vazn buzadigan qalamkashlar esa zog‘ (qarg‘a)dir. Sadriddin Salim Buxoriyning to‘rtligi va Sayfi Saroyining masnaviysidagi qarg‘a va bulbul ramzlari orasida badiiy-g‘oyaviy aloqadorlik mavjudligini ko‘ramiz. Ikkala she’riy matnda ham bulbul ezgu niyatli, zog‘ yovuz niyatli odamlarni o‘z ma’noviy strukturasida aks ettiradi. Shu bilan birga, ular orasida ma’lum bir tafovutlar ham borligini ko‘rish mumkin. Sayfi Saroyi she’rida bulbul va zog‘ ma’lum bir kasb egalari (shoirlar)ni bildirishga xizmat qilsa, zamonaviy o‘zbek shoiri lirik yaratmasida kengroq ma’no kasb etgan: bulbul odamiylik toifasi, zog‘ esa yomonlik vakillarini ramz tarzida tajassum ettirgan.

Dissertatsiyaning III bobi “**To‘rtlik poetikasi**” deb nomlanib, birinchi fasl “**To‘rtlikda badiiy obraz yaratish mahorati”** deb ataladi. Shoir uchun to‘rtlik janrining mas’uliyati kattadir.

Shuhrat to‘rtliklarning poetik tabiati haqida shunday yozadi: “Yozuvchi boshqalardan farqli o‘laroq, hayotni ijodkorga xos ko‘z bilan ko‘radi. Ijodkorga xos qalb bilan his etadi…”[27] Buxorolik shoirlar to‘rtliklarida Vatan obrazi ko‘pincha keng tasvir orqali emas, balki ixcham, ammo ma’nodor ifodalar orqali beriladi. Unda Vatan tushunchasi bevosita tilga olinmasligi ham mumkin, biroq u oddiy detal, ramz yoki ruhiy holat orqali o‘quvchi ongida tiklanadi. Sadriddin Salim Buxoriyning quyidagi “Buxoro Arki” nomli to‘rtligi fikrimizni dalillaydi:

Shahar ichra shahar sen,
Moziydan xushxabar sen.
To‘rt ming yillik tarixni

[25] Садриддин Салим Бухорий. Дурдоналар. – “Бухоро” нашриёти, 2005. – Б. 33.
[26] https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/sayfi-saroyi/
[27] Шуҳрат. Лирика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 179 б.

Asrab kelgan gavhar sen.[28]

Vatan obrazi mazkur to‘rtlikda aniq geografik makon – Buxoroning tarixiy va ma’naviy markazlaridan biri timsoli orqali badiiy talqin etilgan. Xususan, Ark qal’asi dastlabki misrada nafaqat shahar hududidagi me’moriy inshoot, balki o‘z tarixiy xotirasi va ruhiy mustaqilligiga ega bo‘lgan ramziy obraz darajasiga ko‘tarilgan. Shoir uni oddiy makon sifatida emas, balki milliy o‘zlikni mujassam etgan ma’naviy markaz sifatida tasvirlaydi. *“Moziydan xushxabar sen”* misrasi orqali esa obraz yanada jonlantirilib, o‘tmish haqida “so‘zlovchi”, tarixni bugungi avlodga yetkazuvchi vosita sifatida talqin qilingan. “Gavhar” metaforasi orqali Arkning qadri nafaqat tarixiy, balki ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida ham yuksak darajada ulug‘langan. Natijada unda faqat uzoq o‘tmish aks etib qolmay, balki muqaddaslik kasb etgan, milliy xotira va qadriyatlar timsoliga aylangan Vatan obrazi mujassamlashgan. To‘rtlikda obraz yaratish metafora, personifikatsiya hamda tarixiy umumlashtirish kabi badiiy vositalarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllangan.

G‘ulom Shomurod to‘rtliklarida diniy-ma’rifiy obrazlar ijtimoiy tanqid bilan uyg‘unlashgan:

Ba’zilar xotiraga yozib dasturxon,
Shuhrat-u boyligin ko‘z-ko‘zlar chunon.
O‘tganlar muhtoj emas, axir bularga,
Eng ulug‘ ziyofat – o‘qilgan Qur’on.[29]

